

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 6 (12)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Иляс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлевич
тарих фанлари доктори (DSc)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳаммадовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Америка технологиялар университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1	Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI DOIRASIDA BEMORLARNING KASALLIKLAR JARAYONIGA BO‘LGAN QARASHLARINI TAHLIL QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	5
2	Artikov Ulug‘bek Latifjon o‘g‘li BO‘Z RANGLI SOPOL IDISHLARNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI	12
3	Askarov Ollabergan Ikrom o‘g‘li FARG‘ONA VODIYSI SO‘NGI BRONZA-ILK TEMIR DAVRI TARIXI PALEOBOTANIK MATERIALLARDA AKS ETISHI	24
4	Бахранов Шерзад Таштурсунович СОВЕТ ХУКУМАТИ ТОМОНИДАН ЎЗБЕКИСТОН ССР ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТ ВАЗИФАЛАРИНИ ҲАЛ ҚИЛИШ MASALASI ТЎҒРИСИДА	36
5	Mo‘ydinov Doniyorjon Avazbek o‘g‘li AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI DARYO KECHUVLARI TARIXSHUNOSLIGIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR	55
6	Normurodov Dilmurod Raxmatullyevich KITOB TUMANIDAGI SANGANAK (MAKRID) SOY HAVZASIDA OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLOGIK QIDIRUV ISHLARI NATIJALARIDAN	60
7	Norova Dildora Radjabovna BOSH KIYIMLARI VA ULARDAGI ZARDO‘ZLIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIGI	76
8	Nosirova Dlrabxon Ikromjon qizi KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O‘ZGARISHLAR	84
9	Облобердиев Жасурбек Косим угли КОНТАКТНАЯ И ЭНДОГЕННАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ ТРАДИЦИОННОГО ГОСУДАРСТВА: БУХАРА ПРИ МУЗАФФАРЕ И АБДУЛАХАДЕ	90
10	Priniyazov Jetkerbay Adilbayevich QIZIL ANGOBLI SOPOL IDISHLARNING QO‘QON SHAHRINING YOSHINI ANIQLASHDAGI O‘RNI	100
11	Qulboyev Nishonboy Sobur o‘g‘li SANGZOR HAVZASINING TOG‘-OLDI HUDUDLARIDA ANIQLANGAN YANGI YODGORLIKLARNING LANDSHAFT-XO‘JALIK TIZIMI	110
12	Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммад Эшбекович ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИ ДЕКАНЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ЧИЗГИЛАР	120

13	Рахимова Ирода Халимовна МЕЖДУНАРОДНАЯ ОБСТАНОВКА И ЕВРОПЕЙСКИЕ МИССИИ В ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ: ГЕРМАНИЯ И ВЕЛИКОБРИТАНИЯ (XIX В.)	134
14	Саидова Шахноза Шахназаровна УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОГРАММ УЗБЕКИСТАНА	143
15	Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich “ULUS” ATAMASINING KELIB CHIQISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI	160
16	Унгарова Ойдин Кобулжон кизи ИСТОРИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ С 1991 ПО 2023 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ДОСТИЖЕНИЯ	168
17	Xakimova Shoira Sag‘dullayevna O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI MANBALAR DOIRASIDA SHAMOL ENERGIYASIDAN FOYDALANISH TARIXI	176
18	Ҳамраев Суннатилло Аллабердиевич БУХОРО АМИРЛИГИГА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ТОМОНИДАН ЮБОРИЛГАН А.Ф. НЕГРИ МИССИЯСИ ТАРИХШУНОСЛИГИ	184
19	Xolliyev Azizbek Go‘zalovich XIX ASRDA JAHON TEMIR YO‘L QURILISHI: ASOSIY YO‘NALISHLAR VA TENDENSIYALAR	195
20	Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich BUXORO AMILIGINING QO‘QON XONLIGI BILAN MUNOSABATLARI	208
21	Xomitov Ravshan Xomitovich MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MILLIY OZCHILIK HUQUQLARINING TA‘MINLANISHI MASALASIGA OID	221
22	Шакиров Ильяс Рахимзянович КУЛЬТУРНО-ГУМАНТАРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКИСТАНА И ФИЛИППИН: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАП	229
23	Эргашев Хусан Юсуп ўғли ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ ТАРИХ ФАКУЛЬТЕТИНИНГ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЛОЙИҲАЛАРДАГИ ИШТИРОКИ (TACIS-TEMPUS МИСОЛИДА)	237
24	Eshkuvatov Bobir Valikul o'g'li GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA UNING DINIY-MAFKURAVIY HAYOTDA NAMOYON BO‘LISHI	242

Nosirova D. I.

«O‘zbekiston tarixi» kafedrası tadqiqotchisi

Farg‘ona davlat universiteti

dilraboxxonosirova07@gmail.com

KORONAVIRUS PANDEMIYASI VA UNING TA’SIRIDA OVQATLANISH MUASSASALARI FAOLIYATIDAGI O’ZGARISHLAR

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 2020–2022-yillarda yuz bergan koronavirus (COVID-19) pandemiyasining O‘zbekistondagi ovqatlanish muassasalari faoliyatiga ko‘rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik va tashkiliy ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada karantin choralari, mijozlar oqimi, xizmat ko‘rsatish shakllaridagi o‘zgarishlar, raqamli xizmatlar va onlayn buyurtmalarning o‘sishi kabi jarayonlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: COVID-19, umumiy ovqatlanish, karantin, raqamlashtirish, gigiyena, onlayn xizmat.

KIRISH

2019-yil oxirida boshlangan koronavirus pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab barcha sohalar kabi ovqatlanish muassasalariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonda 2020-yil mart oyidan boshlab joriy etilgan qat’iy karantin choralari natijasida ko‘plab umumiy ovqatlanish maskanlari vaqtincha yopildi yoki faoliyatini to‘xtatdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martda qabul qilingan “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”[1]gi qarorida pandemiya sharoitini hisobga olgan holda, fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida bir qator yengilliklar yaratildi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi aholining soliqlar bo‘yicha to‘lovlar miqdori keskin kamaytirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[2]gi Farmoni bilan fuqarolarga, hususan jismoniy va yuridik shaxslarga karantin davrida bir qator imtiyozlar yaratilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, karantin davrida aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan ayrim turdagi mahsulotlarni chetdan olib kirishda to‘lanadigan bojxona boji va aktsiz solig‘ining nol` stavkalari ko‘rsatilib, 2020 yilning 31 dekabrigacha amal qilishi belgilangan. Ushbu maqolada aynan shu davrda ovqatlanish muassasalaridagi o‘zgarishlar tarixiy, iqtisodiy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Pandemiyaning umumiy ovqatlanish bozoriga ta’sirini aniqlash, bu umumiy ovqatlanish biznesini rivojlantirishini o‘rganishga imkon beradi. Ushbu davrda ko‘plab oshxonalarda mijozlar soni keskin kamaydi, taqdim etilayotgan xizmatlarga aholi ehtiyoji kamaydi, cheklovlar tufayli mahsulotlar narxi keskin oshdi, oqibatda ko‘plab tadbirkorlar bankrotga uchradi. Lekin ushbu davrda ovqatlanish tadbirkorligida yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi – yetkazib berish

va onlayn buyurtma olish xizmati. Ayrim oshxonalar yetkazib berish xizmati orqali o'z faoliyatini davom ettirdi, lekin har doim ham bu o'z harajatlarni qoplashga yetarli bo'lmadi. Tadbirkorlar va ishchilar orasida tushkunlik, kelajakka ishonchsizlik paydo bo'ldi. Biroq ayrim tadbirkorlar pandemiyaning yangi imkoniyatlar deb qabul qildi va faoliyatini raqamlashtirishga harakat qildi. Onlayn buyurtma tizimlari, mobil ilovalar va reklama siyosati ommalasha boshladi.

Koronavirus pandemiyasi butun dunyoda turli sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatgan, ayniqsa umumiy ovqatlanish tadbirkorligi eng ko'p zarar ko'rgan sohalardan biri bo'ldi. Karantin cheklovlari, ijtimoiy masofa talablariga amal qilish, ba'zi oshxonalarning yopilishi, mijozlar oqimining keskin kamayishi bu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar faoliyati barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi[3]. Pandemiya davridagi umumiy ovqatlanish sohasi tadbirkorlarining holati, qanday qiyinchiliklarga duch kelganini va ularni yengib o'tganini o'rganish kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rishda va yosh tadbirkorlarni bulardan kerakli xulosa chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Pandemiya davrida kiritilgan cheklovlar va ularning natijalari sifatida 2020-yilning bahorida O'zbekistonda restoran, choyxona, kafelarning faoliyati to'liq to'xtatilgan. Ijtimoiy masofa saqlash, niqob taqish, stollar orasidagi masofa kabi gigiyenik qoidalar joriy etilgan. Ko'plab muassasalar vaqtincha ishsiz qolgan yoki xarajatlarni kamaytirish maqsadida qisqa ish rejimiga o'tgan.

Pandemiya sharoiti esa umumiy ovqatlanish muassasalari egalari uchun qat'iy chegaralarni belgilab qo'ydi. Xarajatlarni qisqartirish va shu asosda biznesni saqlab qolish imkoniyati mavjud edi.

Ushbu davrda ko'plab tadbirkorlar ham logistika xarajatlarni sezilarli darajada optimallashtirishdi, buxgalteriya xodimlarini qisqartirishdi va boshqaruv hisobotlarini tekshirib ko'rishdi, unda mahsulot sifatini buzmasdan tejash mumkin bo'lgan bir qancha yo'llarini topdilar.

Bundan tashqari, ko'plab umumiy ovqatlanish muassasalari jiddiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishdi[5]. Masalan, ular ijaraga olingan binolardagi savdo nuqtalarini tashlab, rentabelligi past bo'lgan ba'zi savdo nuqtalarini yopishgan va o'zlarining bo'sh turgan binolarini ijaraga berishgan.

Lekin eng muhimi, tashkiliy boshqaruv tuzilmasi optimallashtirildi, har bir xodimning lavozim vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, qolgan xodimlar ham samaraliroq ishlay boshladilar.

Umumiy ovqatlanish muassasalari oflayn rejimdan onlayn rejimga faol o'tkazildi. Tadbirkorlar biznesini saqlab qolish uchun korxona faoliyatini bozor kon'yunkturasidan kelib chiqadigan haqiqiy muammolarga moslashtirish kerak bo'ldi[4].

Shuningdek, raqamli imkoniyatlarning foydalana olmaslik eng zaif nuqtadir. Agar mijozlar kafe yoki restoran ilovasini ko'rmasa va chegirmalar va aktsiyalar haqida bilmasa, ular shunchaki kelmaydi. Tadbirkorlar pandemiya davri tajribalaridan kelib chiqqan holda, umumiy ovqatlanish muassasalari raqamli

xizmatlarining faolligiga e'tibor berdilar[4]. Masalan, har bir umumiy ovqatlanish muassasasi o'zining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasini yurita boshladi. Bu faoliyat bo'yicha ham alohida xodimlar yollagan kafe va restoranlar juda ko'p bo'ldi.

Covid-19 bilan kasallanishning ortishi bilan internet orqali buyurtmalar soni sezilarli darajada oshdi. Misol tariqasida, 2021-yil oktabr oyida umumiy ovqatlanish tarmoqlaridan dam olish kunlarida onlayn buyurtma berish uchun o'rtacha hisob-kitob oflaynga nisbatan 35-40 foizga yuqori bo'lganini keltirishimiz mumkin.

Masofaviy yetkazib berish va reklama kanallarini raqamlashtirish va rivojlantirish muhim edi[7]. Shunisi e'tiborliki, ushbu sharoitda zamonaviy aloqa vositalarida ishlashga moslashtirilgan mobil ilovalar juda dolzarbdir. Biroq, mijozlarga xizmat ko'rsatish xavfsizligini ta'minlash va xarajatlarni kamaytirish uchun xodimlarni tegishli kompyuter dasturlari bilan almashtirish tizimidan maksimal darajada foydalanish kerak bo'ldi. Masalan, call-markazlar orqali mijozlar buyurtmalarini qabul qilish va qayta ishlashni to'xtatish, buyurtmalar haqidagi ma'lumotlarni oshxonaga qo'lda uzatishni to'xtatish zarur edi.

Raqamli transformatsiya nafaqat restoran veb-sayti va reklama, balki SMM (Ijtimoiy media marketingi) bilan ham bog'liq. SMM bu ijtimoiy media marketingidir. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli maqsadli auditoriya bilan aloqa ancha ko'p tomonlama bo'ldi. Agar zamonaviy marketing ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalanmasa, bu reklama kompaniyasining ko'lami va samaradorligini va umuman restoran biznesini sezilarli darajada cheklaydi. Ammo faqat SMM tizimiga e'tibor qaratish ham uzoqni ko'ra olmaydi. Raqamlashtirish jarayoni restoran biznesining boshqaruv tuzilmasini o'zgartirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali taklif etilayotgan mahsulotlarni o'zgartirishga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Bundan tashqari, raqamlashtirish umumiy ovqatlanish muassasalarining rivojlanish strategiyasiga va uning korporativ madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, bunda vakolatli, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumot to'plash va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin.

Haqiqatan ham, raqamlashtirish kompaniyaning yangi strategiyasiga aylanadi, qachonki yaxshi qurilgan infratuzilma bilan korporativ madaniyat boshqa narsalar qatorida o'zgartiriladi.

Restoranni onlayn tarzda taqdim etish uchun samarali aloqa tizimi ishlab chiqildi. Raqamlashtirish mehmonlar bilan yangi aloqa tizimini yaratishga va yangi tashrif buyuruvchilarni jalb qilishga yordam berdi. Avvalo, har bir muassasa o'z veb-saytini yangilashi va menyusini elektron shaklga o'tkazishi kerak bo'ldi. Buning uchun saytdan keraksiz ma'lumotlarni olib tashlab, restoran xizmatlari va mahsulotlari elektron menyu va boshqa elektron resurslarda sifatli taqdim etilishiga barcha sa'y-harakatlarni yo'naltirishga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra pandemiya sababli umumiy ovqatlanish sanoatidagi inqiroz tadbirkorlar faoliyatiga jiddiy zarba berdi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Covid-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan inqiroz nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xarakterdagi muammolarni ham ochib berdi.

Umumiy ovqatlanish biznesi uchun hozirgi inqirozdan chiqish yo'li haqida xulosa chiqarishga hali erta. Biroq, restoran sanoati oldida turgan inqirozli vaziyat burilish nuqtasi bo'lib, individual bozorlar avvalgidan ko'ra kuchliroq paydo bo'lishiga umid qilinadi. Bir qator talablarga javob beradigan restoran operatorlari (yuqori malaka darajasi, o'z xodimlari va mijozlarining sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish, kapitalni boshqarishga oqilona yondashish, hamkorlikka intilish, yetkazib berish operatsiyalarini optimallashtirish) yangi imkoniyatlarni ochdi.

Xizmat ko'rsatish shakllarining o'zgarishi. Onlayn buyurtmalar, mobil ilovalar, telefon orqali yetkazib berish kabi xizmatlar kengaydi. Platformalar (Masalan: Express24) orqali buyurtma qilish odatiy holga aylandi. Raqamlashtirish va texnologik yondashuvlar sifatida menyular QR-kod orqali taqdim etila boshlandi, shaxsiy aloqani kamaytirish maqsadida.

Gigiyena va sanitariya talablari kuchaytirildi. Dezinfektsiyalash vositalari, antiseptiklar, xodimlar uchun tibbiy niqob va qo'lqop majburiy holga keltirildi. Sanepidnazorat organlari tomonidan doimiy monitoring yo'lga qo'yildi.

Kichik biznes subyektlariga ta'siri sifatida katta tarmoqli restoranlarga nisbatan kichik tadbirkorlar og'ir yo'qotishlarga uchradi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, ijaralarni kechiktirish va kreditlarni qayta ko'rib chiqish bo'yicha dasturlar joriy etildi.

XULOSA

Pandemiya umumiy ovqatlanish sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. An'anaviy xizmat ko'rsatishdan raqamli va gigiyenik standartlarga asoslangan zamonaviy tizimga o'tish kuzatildi. Bu holat tadbirkorlik faoliyatida yangicha yondashuvlarni va bozor talablari asosida moslashuvchanlikni zarur ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Pandemiyaning oqibatlari uzoq vaqt davomida umumiy ovqatlanish muassasalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Koronavirus pandemiyasi va uning oqibatlari xodimlar, joylashuv, reklama yordami yoki noto'g'ri tuzilgan menyu bilan bog'liq muammolarga duch kelgan restoranlarga alohida ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayondan ko'plab tadbirkorlar saboq olib o'z ishini yangicha yo'nalishda olib borishga harakat qildi. Xususan, hukumat tomonidan tadbirkorlar uchun foizsiz kredit, subsidiya va grantlar ajratdi, ammo norasmiy faoliyat yuritayotgan, hujjatlari to'liq bo'lmagan tadbirkorlar bu imkoniyatdan foydalana olmadi. Sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Kafelar va restoranlar yangi sanitariya me'yorlariga moslashishga majbur bo'lishdi. Taomlarni yetkazib berish xizmatlari pandemiya davrida tezda rivojlandi. Mahalliy taomlar va an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlariga talab oshdi. Oziq-ovqat muassasalarida kontakti kamaytirish uchun onlayn buyurtma tizimlari joriy etildi.

Mazkur jarayonlar nafaqat inqiroz davrida, balki undan keyingi yillarda ham ovqatlanish muassasalarining boshqaruv strategiyasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Takliflar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish o'rinlidir:

Xodimlarni krizis boshqaruvi bo'yicha tayyorlash - favqulodda vaziyatlarda (pandemiya, tabiiy ofatlar) xizmat ko'rsatish bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Mahalliy xom-ashyo yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish - importga qaramlikni kamaytirish, logistika uzilishlarida oziq-ovqat ta'minotini kafolatlash.

Raqamli marketing va ijtimoiy tarmoqlarni faol qo'llash -pandemiya sharoitida mijozlar bilan aloqa va brend obro'sini saqlash uchun onlayn reklamani kuchaytirish.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" // <https://lex.uz/docs/-4770761?ONDATE=01.04.2022>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 03.04.2020 yildagi PF-5978-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida // <https://lex.uz/docs/-4780475>
3. Farg'ona viloyati hokimligi joriy arxivi ma'lumotlari.
4. O'tkazilgan suhbat natijalari. Suhbatlar asosan Farg'ona va Qo'qon shaharlarida o'tkazilgan.
5. Karimova M. "Pandemiya sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining transformatsiyasi". – T.: "O'zbekiston iqtisodiyoti" jurnali. 2021-y.
6. Nazarova D. "Covid-19 pandemiyasi sharoitida kichik biznesni qo'llab quvvatlash strategiyalari". – T.: "O'zbekiston iqtisodiyoti" jurnali. 2021-y.
7. O'zbekistonning pandemiya davrida raqamli rivojlantirish salohiyati muhokama qilindi // <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/press-releases/ozbekistonning-pandemiya-davrida-raqamli-rivojlantirish-salohiyati-muhokama-qilindi>

Носирова Д. И.

Исследователь кафедры «История Узбекистана»

Ферганский государственный университет

dilraxonnosirova07@gmail.com

ПАНДЕМИЯ КОРОНАВИРУСА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБЩЕСТВЕННОГО ПИТАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется социально-экономическое, санитарно-гигиеническое и организационное воздействие пандемии коронавируса (COVID-19), произошедшей в 2020–2022 годах, на деятельность предприятий общественного питания в Узбекистане. В статье рассматриваются такие процессы, как карантинные меры, поток клиентов, изменение форм обслуживания, а также рост цифровых услуг и онлайн-заказов.

Ключевые слова: COVID-19, общественное питание, карантин, цифровизация, гигиена, онлайн-обслуживание.

Nosirova D. I.

Researcher at the department of «History of Uzbekistan»

Fergana state university

dilraxonnosirova07@gmail.com

CORONAVIRUS PANDEMIC AND ITS IMPACT CHANGES IN THE ACTIVITIES OF CATERING ESTABLISHMENTS

ABSTRACT

This article analyzes the socio-economic, sanitary-hygienic and organizational impact of the coronavirus (COVID-19) pandemic that occurred in 2020–2022 on the activities of catering establishments in Uzbekistan. The article covers processes such as quarantine measures, customer flow, changes in service forms, and the growth of digital services and online orders.

Keywords: COVID-19, catering, quarantine, digitalization, hygiene, online service.